

MAHALLA-IJTIMOIYLASHUV MASKANI



Badalova Mushtariy Usmonali qizi-

*Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lif pedagogikasi psixologiya
yo'nalishi 2-kurs talabasi.*

e-mail: badalovamushtariy35@gmail.com

Annotatsiya: mUshbu maqolada mahallaning ijtimoiylashuv maskani haqidagi qarashlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: mahalla, ijtimoiylashuv, ota-on, keksalar, jamiyat, bolalar, hurmat.

Insoniyat yaralibdiki, uning ma'naviy yuksalishiga beshik bo'lgan, tarixi bir necha ming yillik tarixga borib taqaladigan, dunyoning barcha taraqqiyot bosqichlariga guvoh bo'lgan, bag'rida ham olis o'tmish, ham bugungi tamaddun jarayonlarini namoyon etuvchi bir maskan bor. Bu maskan, shubhasiz, mahalladir. Mahalla – xalq bilan mamlakat o'rtasidagi ishonch ko'prigi sifatida xizmat qiladigan, insonni jamiyatning bir qismi bo'lishga o'rgatadigan, uni bag'rikenglik va xalqparvarlik ruhida tarbiyalaydigan makondir. Jonajon diyorimizda mahallalar juda ko'p bo'lib, ularning o'ziga xos nomlari bizga tarixdan so'zlaydi. Chunki ularda xalqimizning uzoq va shonli tarixi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti, madaniy merosi aks etadi. Mahalla insonning og'ir kunida ham, yengil kunida ham kerak bo'ladi. Shuning uchun ham "Otang mahalla, onang mahalla", deb bejizga aytishmagan. Bugungi kunda mahalla hududidagi har qanday muhim masalalarni, tadbirlarni, to'yu-marakalarni mahalla oqsoqollarining maslahatlarisiz hal qilishmaydi. Mahalla ahlining tinch, inoqda yashashlari, obod va farovon bo'lishi ko'pincha mahalla oqsoqollariga bog'liqdir. Mahalla oqsoqoli aqilli, dono, farosatli,adolatli va rahmdil inson bo'lsa, unday insonning qadriga yetib, unga hamfikr, hamnafas va ko'makdosh bo'lish bilan birga, unga hasad

qiladigan ichi qoralardan himoya qilish kerak. Mahalla fuqarolarining yuqori savodxonlik va madaniy darajasi (yosh va o'rta avlod, o'rta yoki oliy ma'lumotga ega) badiiy ijodning keng rivojlanishi, marosimlar o'tkazishda ma'naviy o'z-o'zini ifodalashning keng imkoniyatlarini ko'zdatutadi.

Shuni ta'kidlash joizki, etnik an'analar va marosimlarning tiklanishida avvalo, oiladagi katta avlod, shuningdek, ommaviy axborot vositalari, ayniqsa televidenie katta o'rin tutadi. Hozirgi kunda mahallaning ahamiyati oshib bormoqda. Biroq yoshlar tarbiyasida muammolar kam emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarning axloqiy tarbiyasiga xalaqit beradigan bir qancha holatlar ham kelib chiqmoqda. Yoshlarning yoshligidanoq savdo-sotiq qilishga va boshqa tijorat ishlariga sho'g'ib ketishi ularning o'qishiga, bilim olishga bo'lgan intilishlariga, ijtimoiy munosabatlarga kirishishga, salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

«Ijtimoylashuv» atamasini birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog F.G.Keddings insonlarga nisbatan qollagan. U o'zining «Ijtimoylashuv nazariyasi» (1987) kitobida «ijtimoylashuv individ tabiatini yoki xarakterining rivojlanishi, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir», degan fikrni bildiradi.

Bugungi kunda jamiyatimizda olib borilayotgan siyosatning asosiy maqsadlaridan biri — barkamol avlodni tarbiyalashdir. Barkamol avlod tarbiyasi uchun mas'ul boigan kishilar sifatida psixolog mutaxassislarga bugungi mavzu juda dolzarbdir. Har birimizning jamiyatdagi o'rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bolgani, jamiyatga qo'shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari jarayoni psixologiyada ijtimoylashuv yoki sotsializatsiya deb yuritiladi. Shuni ta'kidlash joizki, etnik an'analar va marosimlarning tiklanishida avvalo, oiladagi katta avlod, shuningdek, ommaviy axborot vositalari, ayniqsa televidenie katta o'rin tutadi. Hozirgi kunda mahallaning ahamiyati oshib bormoqda. Biroq yoshlar tarbiyasida muammolar kam emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarning axloqiy tarbiyasiga xalaqit beradigan bir qancha holatlar ham kelib chiqmoqda. Yoshlarning yoshligidanoq savdo-sotiq qilishga va boshqa tijorat ishlariga sho'g'ib ketishi ularning o'qishiga, bilim olishga bo'lган

intilishlariga, ijtimoiy munosabatlarga kirishishga, salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ba'zi hollarda muallimlar o'quvchilarni to'liq tarbiyalash imkoniyatidan mahrumdirlar, ya'ni ular boshqa faoliyat bilan ham shug'ullanadilar. Jamiatni demokratiyalashtirishningmazkur osqichida yoshlar faoliyat turini tanlashda keng imkoniyatlarga ega bo'lishdi. Biroq ular bulardan to'liq foydalana olmaydilar. So'nggi yillarda yoshlar orasida siyosiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish susaydi, din ta'siri kuchaydi va bu natijada yoshlar mafkuraviy sohada o'z mo'ljallarini yo'qotishlariga olib keldi. Mahalla tarbiyaning an'anaviy usullaridan foydalanib, yosh avlod bilan yanada faol ish olib borish, ularda hozirgi jamiyat talablariga muvofiq keladigan dunyoqarash va axloqiy tamoyillar hosil qilishdan iborat.

Mahalla azaldan nafaqat o'sib kelayotgan avlodning tarbiyachisi vazifasini bajargan, balki ijtimoiy fikrni shakllantirgan ham. Qo'shnilar o'rtasidagi barcha nizoli holatlar, shuningdek, esa oilaviy janjallar mahalla qo'mitalari faollari tomonidan muhokama qilinadi. Bular orasida ko'pincha qaynona-kelin, yosh kelin- kuyovlar orasida janjallar ko'p uchraydi. Bunaqa holatlarda xotin-qizlar qo'mitasi suhbat o'tkazadi. Agar ikki tomonni yarashtirib bo'lmasa, bu holat bilan mahalla qo'mitasi shug'ullanadi. Odatta o'sha joyning o'zida muammo hal qilinadi. Shuning uchun ajralishlar soni ko'p emas. So'nggi paytlarda uy ishlari bilan band ayollar, yosh oilalar bilan ishlash faollahdi, ularni kasb-hunarlarg'a o'rgatish ishlari olib borilmoqda. Mahalla ishsizlarning ishga joylashishlariga ham ko'maklashmoqda. Harbiy qo'mitalar askarlikka olishga tanlov bo'lganda mahalla faolligigatayanishadi.

1999 yil 14 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari haqida"gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Unda yana bir marta fuqarolarning o'z-o'zini boshqarishi asosida tarixiy taraqqiy xususiyatlari, milliy va ma'naviy qadriyatlar, mahalliy odatt va an'analar yotishi ta'kidlandi. Qonunda mahallaning vazifalari belgilab qo'yilgan. YUqorida sanab o'tilgan vazifalardan tashqari mahallaga yangi vazifalar-tijorat va maishiy xizmat ko'rsatishni, hududning tozalik holatini, aholidan soliqlarni o'z vaqtida

topshirilishini nazorat qilish ham yuklatildi. Davlat mahallaga avval mahalliy kengashlar bajargan vazifalarni yuklamoqda. Bu esa mahalla qo'mitalari davlat tuzilmalariga aylanayotganligidan guvohlik beradi.

Mahallaning ijtimoiy hayotida so'nggi o'n yillarda katta o'zgarishlarni boshdan kechirgan qo'shnichilik munosabatlari muhim o'rin tutmoqda. Oilaviy muhitning individuallashuv jarayoni ketmoqda. Shu bilan birga yaqin qo'shnichilik munosabatlari o'zbek oilasining qadriyatlaridan biri bo'lib qolaveradi. Bu avvalombor xo'jalik yordamida, bolalar tarbiyasida, qiyin vaziyatlarda yordam ko'rsatishda namoyon bo'lmoqda. SHuning asosida ma'naviy yaqinlik paydo bo'ladi, ya'ni kundalik axborot almashinushi, mahalladagi voqealar muhokamasi bo'lib o'tadi. Shu tarzda mahalladagi eng kichik guruhlardan biri- qo'shnichilik guruhi paydobo'ladi.

Mana shu guruh bilan bir qatorda qarindoshlik aloqalari ham mavjud. Ular hozirda avvalgidan ko'ra kamroq bo'lsada, uning a'zolarining faol o'zaro yordami bilan xarakterlidir. Qarindoshlik munosabatlari o'zbeklarning oilaviy qadriyatlari tizimida hali ham birinchi o'rinda turadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.N.Ismoilova, D.Abdullayeva "Ijtimoiy psixologiya", Toshkent,2013
2. Akramova, D. (2022). Bo'lajak pedagog-psixologlarning mактабгача та'lim tizimidagi faoliyati. *Science and innovation*, 1(B8), 322-326.
3. Akramova, D. (2022). Oliy ta'lim muassalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. *Science and innovation*, 1(B8), 2150-2153.
4. Акрамова, Д. Э. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГИБКОСТИ У СТУДЕНТОВ КАК ПРОБЛЕМА

**СОВРЕМЕННОСТИ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ
ИДЕИ В МИРЕ, 13(8), 19-23.**

5. Akramova, D. E. qizi Suvonqulova, MD (2023, January). RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH VA MILLIY QADRIYATLAR NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 393-396).
6. Akramova, D. E. qizi Azimova, XD (2023, January). MAKTABGACHA TA'LIM YO 'NALISHI TALABALARIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 382-385).
7. Ergashevna, A. D. (2025). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIALIZATION IN SCHOOLCHILDREN OF THE PREPARATORY GROUP. *SHOKH LIBRARY*.
8. Akramova, D. (2022). Bo'lajak pedagog-psixologlarning maktabgacha ta'lim tizimidagi faoliyati. *Science and innovation*, 1(B8), 322-326.
9. Ibraimov, X., & Akramova, D. (2023). DIDACTIC CHARACTERISTICS OF COMMUNICATIVE TRAINING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. *Science and innovation*, 2(B11), 357-361.